

ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER

p-ISSN 2992-9229

e-ISSN 3060-5318



TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

Xalqaro ilmiy jurnal

2025 №1
(6)

Samarqand-2025

p-ISSN 2992-9229

e-ISSN 3060-5318



TURKOLOGIK TADQIQOTLAR


XALQARO ILMIY JURNALI

“TURKOLOGICAL RESEARCH” INTERNATIONAL SCIENTIFIC
JOURNAL

ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” DERGİSİ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”



Jurnal rasmiy sayti: <https://turkologiya.samdu.uz/>



SAMARQAND – 2025



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL “TURKOLOGICAL RESEARCH”
ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”

Bosh muharrir:

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Juliboy ELTAZAROV

f.f.d., professor (O‘zbekiston)

Roxila RUZMANOVA

f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)

TAHRIRIYAT KENGASHI:

<p>Rustam XALMURADOV – t.f.d., professor, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti rektori (O‘zbekiston);</p> <p>Hakim XUSHVAQTOV – f-m.f.d., professor, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori (O‘zbekiston);</p> <p>Akmal AHATOV – t.f.d., professor, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektori (O‘zbekiston);</p> <p>Muslihiddin MUHIDDINOV – f.f.d., professor (O‘zbekiston);</p> <p>Ibodulla MIRZAYEV – f.f.d., professor (O‘zbekiston);</p> <p>Shuhrat SIROJIDDINOV – f.f.d., professor (O‘zbekiston);</p> <p>Suyun KARIMOV – f.f.d., professor (O‘zbekiston);</p> <p>Murodqosim ABDIYEV – f.f.d., professor (O‘zbekiston);</p> <p>Azamat PARDAYEV – f.f.d., professor (O‘zbekiston);</p> <p>Musa YULDASHEV – f.f.n., professor (O‘zbekiston);</p> <p>Dilfuza DJURAKULOVA – t.f.n., professor (O‘zbekiston);</p> <p>Aftondil ERKINOV – f.f.d., professor (O‘zbekiston);</p> <p>Hotam UMUROV – f.f.d., professor (O‘zbekiston);</p>	<p>Qosimjon SODIQOV – f.f.d., professor (O‘zbekiston);</p> <p>Muhabbat QURBONOVA – f.f.d., professor (O‘zbekiston);</p> <p>Mardon BOLTAYEV – dotsent (O‘zbekiston);</p> <p>Ali AKAR – f.f.d., professor (Turkiya);</p> <p>Abduselam ARVAS – f.f.d., professor (Turkiya);</p> <p>Funda TOPRAK – f.f.d., professor (Turkiya);</p> <p>Musa Shamil YUKSEL – f.f.d., professor (Turkiya);</p> <p>Temur KOJAO‘G‘LI – f.f.d., professor (AQSH);</p> <p>Hayrunnisa ALAN – f.f.d., professor (Turkiya);</p> <p>Varis CHAKAN – f.f.d., professor (Turkiya);</p> <p>Almaz ULVI – f.f.d., professor (Ozarbayjon);</p> <p>Emrah YILMAZ – Phd, dotsent (Turkiya);</p> <p>Foziljon SHUKUROV – Phd, dotsent (O‘zbekiston);</p> <p>Dilshod XURSANOV – Phd, dotsent (O‘zbekiston);</p> <p>Shahnoza XUSHMURODOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston);</p> <p>Dinara ISLAMOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston);</p> <p>Feruza JUMANIYAZOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston);</p> <p>Istoda RASULOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston);</p> <p>Feruza MANUKYAN – Phd (O‘zbekiston);</p> <p>Mas‘ul muharrir: PhD, dotsent Zokir BAYNAZAROV (O‘zbekiston);</p> <p>Texnik xodim: Raxmatulla SHOKIROV (O‘zbekiston).</p>
---	--



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”

ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”

Главный редактор:

Заместитель главного редактора:

Жулибой ЭЛТАЗАРОВ

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Рохила РУЗМАНОВА

к.ф.н., доцент (Узбекистан)

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Рустам ХАЛМУРАДОВ – д.т.н., профессор, ректор Самаркандского государственного университета имени Ш.Рашидова (Узбекистан);

Хаким ХУШВАКТОВ – д.ф.-м.н., профессор, проректор по научной работе и инновациям Самаркандского государственного университета имени Ш.Рашидова (Узбекистан);

Акмал АХАТОВ – д.т.н., профессор, проректор по международному сотрудничеству Самаркандского государственного университета имени Ш.Рашидова (Узбекистан);

Муслихиддин МУХИДДИНОВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Ибодулла МИРЗАЕВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Шухрат СИРОЖИДДИНОВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Суюн КАРИМОВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Муродкасым АБДИЕВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Азамат ПАРДАЕВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Муса ЮЛДАШЕВ – к.ф.н., профессор (Узбекистан);

Дилфуза ДЖУРАКУЛОВА – к.и.н., доцент (Узбекистан);

Афтондил ЭРКИНОВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Касимжон СОДИКОВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Хотам УМУРОВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Мухаббат КУРБАНОВА – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Мардон БОЛТАЕВ – доцент (Узбекистан);

Али АКАР – д.ф.н., профессор (Турция);

Абдуселам АРВАС – д.ф.н., профессор (Турция);

Фунда ТОПРАК – д.ф.н., профессор (Турция);

Муса Шамиль ЮКСЕЛЬ – д.ф.н., профессор (Турция);

Темур КОДЖАОГЛУ – д.ф.н., профессор (США);

Хайрунниса АЛАН – д.ф.н., профессор (Турция);

Барис ЧАКАН – д.ф.н., профессор (Турция);

Алмаз УЛЬВИ – д.ф.н., профессор (Азербайджан).

Эмрах ЙИЛМАЗ – PhD, доцент (Турция);

Фозилжон ШУКУРОВ – PhD, доцент (Узбекистан);

Дилшод ХУРСАНОВ – PhD, доцент (Узбекистан);

Шахноза ХУШМУРОДОВА – PhD, доцент (Узбекистан);

Динара ИСЛАМОВА – PhD, доцент (Узбекистан);

Феруза ДЖУМАНИЯЗОВА – PhD, доцент (Узбекистан);

Истода РАСУЛОВА – PhD, доцент (Узбекистан);

Феруза МАНУКЯН – Phd (Узбекистан);

Ответственный редактор: **PhD, доцент Зокир БАЙНАЗАРОВ (Узбекистан)**

Технический персонал: **Рахматулла ШОКИРОВ (Узбекистан)**



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMİY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”
ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ”

Chief Editor:/ Deputy Chief Editor:

Baş Editör:/ Baş Editör Yardımcısı:

Prof. Dr. Juliboy ELTAZAROV (Uzbekistan)
Ass. Prof. Dr. Rokhila RUZMANOVA (Uzbekistan)

Prof. Dr. Juliboy ELTAZAROV (Özbekistan)
Doç. Dr. Rohila RUZMANOVA (Özbekistan)

EDITORIAL TEAM:/ BİLİM KURULU:

Prof. Dr. Rustam KHALMURADOV – Rector of Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

Prof. Dr. Hakim KHUSHVAKTOV – Vice-Rector for Research and Innovation, Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

Prof. Dr. Akmal AKHATOV – Vice-Rector for International Cooperation of Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

Prof. Dr. Muslihiddin MUKHIDDINOV (Uzbekistan)

Prof. Dr. Ibodulla MIRZAEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Shukhrat SIROJIDDINOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Suyun KARIMOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Murodkasim ABDIEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Azamat PARDAEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Musa YULDASHEV (Uzbekistan);

Ass. Prof. Dr. Dilfuza DJURAKULOVA (Uzbekistan);

Prof. Dr. Aftondil ERKINOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Kasimjon SODIKOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Khotam UMUROV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Muhabbat KURBANOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. Mardon BOLTAEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Ali AKAR (Turkey);

Prof. Dr. Abdusalam ARVAS (Turkey);

Prof. Dr. Funda TOPRAK (Turkey);

Prof. Dr. Musa Shamil YUKSEL (Turkey);

Prof. Dr. Temur KOJAĞLU (USA);

Prof. Dr. Hayrunnisa ALAN (Turkey);

Prof. Dr. Varis ÇAKAN (Turkey);

Prof. Dr. Almaz ULVI (Azerbaijan);

Ass. Prof. PhD. Emrah YILMAZ (Turkey);

Ass. Prof. PhD. Foziljon SHUKUROV (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Dilshod KHURSANOV (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Shakhnoza KHUSHMURODOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Dinara İSLAMOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Feruza CUMANIYAZOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Istoda RASULOVA (Uzbekistan);

PhD. Feruza MANUKYAN (Uzbekistan);

Managing editor: *Ass. Prof. PhD. Zokir BAYNAZAROV* (Uzbekistan)

Technical staff: **Rahmatulla SHOKIROV** (Uzbekistan)

Prof. Dr. Rustam HALMURADOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Rektörü (Özbekistan);

Prof. Dr. Hakim HUŞVAKTOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Araştırma ve İnovasyondan Sorumlu Rektör Yardımcısı (Özbekistan);

Prof. Dr. Akmal AHATOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Uluslararası İşbirliğinden Sorumlu Rektör Yardımcısı (Özbekistan);

Prof. Dr. Muslihiddin MUHİDDİNOV (Özbekistan);

Prof. Dr. İbodulla MİRZAYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Şuhrat SİROCİDDİNOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Suyun KARİMOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Murodkasim ABDİYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Azamat PARDAYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Musa YULDAŞEV (Özbekistan);

Doç. Dr. Dilfuza CURAKULOVA (Özbekistan);

Prof. Dr. Aftondil ERKİNOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Kasimjon SODİKOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Hotam UMUROV (Özbekistan);

Prof. Dr. Muhabbat KURBANOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Mardon BOLTAYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Ali AKAR (Türkiye);

Prof. Dr. Abdusalem ARVAS (Türkiye);

Prof. Dr. Funda TOPRAK (Türkiye);

Prof. Dr. Musa Şamil YÜKSEL (Türkiye);

Prof. Dr. Timur KOCAOĞLU (ABD);

Prof. Dr. Hayrunnisa ALAN (Türkiye);

Prof. Dr. Varis ÇAKAN (Türkiye);

Prof. Dr. Almaz ÜLVİ (Azerbaycan);

Doç. Dr. Emrah YILMAZ (Türkiye);

Doç. Dr. Foziljon ŞUKUROV (Özbekistan);

Doç. Dr. Dilşod HURSAVOV (Özbekistan);

Doç. Dr. Şahnoza HUŞMURODOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Dinara İSLAMOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Feruza CUMANIYAZOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Istoda RASULOVA (Özbekistan);

Dr. Feruza MANUKYAN (Özbekistan);

Sorumlu Editör: *Doç., Dr. Zokir BAYNAZAROV* (Özbekistan)

Teknik Personel: **Rahmatullah ŞOKİROV** (Özbekistan)

MUNDARIJA | CONTENT | İÇERİK | СОДЕРЖАНИЕ

TURKIY XALQLARNING IJTIMOIIY-MADANIY ALOQALARI TARIXI

Emrah YILMAZ

ÖZBEKİSTAN'IN KÜRESEL BAŞARILARINA SOSYOKÜLTÜREL BİR YAKLAŞIM VE 2024 YILININ ANALİZİ 8

МУСАЕВ Даянат Муса оглы

ЗНАЧЕНИЕ ОТНОШЕНИЙ АЗЕРБАЙДЖАНА С УЗБЕКИСТАНОМ ДЛЯ ОБЪЕДИНЕНИЯ ТЮРКСКОГО МИРА 21

Xurshid Sirojiddinovich JUMANAZAROV

TURKISTON O'LKASIDA MUSTAMLAKA TIBBIYOTINI O'RNATISHDAGI IJTIMOIIY MUAMMOLAR 28

Ülkər HƏSƏNOVA

1926-CI İL I TÜRKOLJİ QURULTAYIN TARİXİ ƏHƏMİYYƏTİ 34

Türkan MAHMUDZADƏ

TÜRKOLJİ QURULTAYIN TÜRKÇÜLÜYÜN İNKİŞAFINDA ROLU 43

RAHMONOVA Parvina

HINDISTON HUKMDORLARINING SAMARQANDGA TUHFASI 52

TURK DUNYOSI TADQIQOTLARI

Baxtiyor ABDUSHUKUROV

KUL TIGIN BITIGTOSHI VA O'ZBEK TILI SHEVALARI 59

Tagandurdy BEKJAYEV

TÜRKMEN DİLİNDE TAKVİMLE İLGİLİ KİŞİ ADLARI 66

ALLAMBERGENOVA Muqaddas Ruslanovna

O'RXUN-ENASOY OBIDALARI LEKSIK QATLAMINING HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI FONETIK-SEMANTIK TIZIMIDA AKS ETISHI 72

SHUKUROV Ahad Axmatovich

ARXAIZMLARNING LINGVO-USLUBIY IMKONIYATLARI 81

BARZIYEV Oybek Xabibullayevich

ANDIJON ZILZILASI TAFSILOTLARIGA BAG'ISHLANGAN AN'ANAVIY SHE'RIY ASARLAR TAHLILI 90

MAMAJONOV Muhammadjon, OMONIDDINOVA Durdonaxon

PRAGMALINGVISTIKA VA TILSHUNOSLIKDA KO'P MA'NOLILIK MUAMMOSI 96

KARIMOVA Dilafro'z Obidjonovna

AKADEMIK AHMADALI ASQAROVNING YETUK ARXEOLG SIFATIDA SHAKLLANISH YO'LI 102

DJUMAMURATOV Kuanishbay

INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI KOLORATIV BIRLIKLI FRAZEOLGIZMLARNING KOMPONENTLI TAHLILI 113

Aynur CƏFƏROVA

AZƏRBAYCAN VƏ TÜRKİYƏ TÜRKÇƏLƏRİNİN TERMİNOLOGİYASİNİN İNKİŞAFINDA BİRİNCİ TÜRKOLJİ QURULTAYIN ROLU 122

Nərmin RƏHİMOVA

BİRİNCİ TÜRKOLJİ QURULTAYDA ƏLİFBA VƏ DİL MÖVZULARI TÜRK XALQLARININ ORTAQ PROBLEMI KIMI 131

Valida SHIKHALIYEVA

TÜRKOLOJİ QURULTAYDA ORTAQ DİL MƏSƏLƏSİ DÜNƏN VƏ BÜGÜN 139

ESHMIRZAYEV Bahodir Djurayevich, ISMOILOV Behruzjon Isroilovich

ANTROPONIMLARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI..... 150

RO‘ZIYEV QAHRAMON KUZIMURATOVICH

O‘ZBEK TILIDA “NON” KONSEPTINING LINGVOMADANIY TAHLILI..... 154

NABIYEVA Nodira Saidovna

LIRIKADA ILTIJO KONSEPTINI IFODALAYDIGAN JANRLAR 162

Nilufar NORPO‘LATOVA

SAMARQANDNING TARIXIY NOMLARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR 168

MELIBAYEVA Soxibaxon

O‘ZBEK ANTROPONIMLARI PRETSEDENT BIRLIK SIFATIDA 176

RAHMATOVA Sevara Alisherovna

ESHQOBIL SHUKUR SHE‘RLARIDA TAKRORNING MATN QISMLARINI
BOG‘LASHDAGI ROLI..... 183

AZIZ MUSHTARIY!

2025-yilda qadrlı mushtariylarini 1-soni bilan mamnun qilgan “Turkologik tadqiqotlar” jurnali hay’ati sifatida, sharqona yangi yilimizning Turk dunyosi va butun insoniyat uchun tinchlik, farovonlik va muvaffaqiyatlarga to’la bo’lishini tilaymiz. Bu sonimizda “Turk dunyosi birligida O‘zbekiston va Ozarbayjon aloqalarining ahamiyati”, “Turkiy tillar va Ozarbayjon terminologiyasi rivojida birinchi turkologiya qurultoyining o‘rni”, Turkman tilida taqvimlar bilan bog‘liq shaxs ismlari”, “O‘rxun-Enasoy obidalari leksik qatlamining hozirgi o‘zbek adabiy tili fonetik-semantik tizimida aks etishi”, “Birinchi Turkologiya qurultoyida mushtarak alifbo va til mavzulari turkiy xalqlarning umumiy muammosi sifatida” kabi bir qator til, madaniyat, tarix, terminologiyaga oid mavzular kiritilgan. Qardosh mamlakatlardagi olimlarning turkologik tadqiqotlar haqida yozgan maqolalari va ilmiy faoliyatlari, xalqlarimiz o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlovchi ko‘prik vazifasini o‘taydi. Umid qilamizki, turk dunyosida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar natijalari soha mutaxassilari, doktorant va magistrantlar, yosh tadqiqotchilar uchun foydali bo‘ladi...

TAHRIRIYAT

DEAR READER!

As the board of the journal "Turkological Studies," which pleased its valued subscribers with its first issue in 2025, we wish that our oriental new year will be full of peace, prosperity, and success for the Turkic world and all humanity. This issue includes several topics related to language, culture, history, and terminology, such as "The importance of relations between Uzbekistan and Azerbaijan in the unity of the Turkic world," "The role of the First Turkology Congress in the development of Turkic languages and Azerbaijani terminology," "Personal names associated with calendars in the Turkmen language," "Reflection of the lexical layer of Orkhon-Enasoy monuments in the phonetic-semantic system of the current Uzbek literary language," "Common alphabet and language topics as a common problem of the Turkic peoples at the First Turkology Congress." Articles and scientific activities of scientists from fraternal countries on Turkological studies serve as a bridge that strengthens ties between our peoples. We hope that the research results conducted in the Turkic world will be helpful for specialists in the field, doctoral and master's students, and young researchers...

EDITORIAL BOARD

SEVGİLİ OKUYUCU!

2025 yilının 1. sayisiyla siz deęerli okurlarımızı memnuniyetle karřilayan “Türkolojik Arařtırmalar” dergisinin yönetim kurulu olarak, Yeni Yilimizin Türk dünyası ve tüm insanlık için barış, refah ve başarılarla dolu olmasını diliyoruz. Bu sayımızda, “Özbekistan-Azerbaycan İliřkilerinin Türk Dünyası Birlięi Açısından Önemi”, “Türk Dilleri ve Azerbaycan Terminolojisinin Geliřiminde Birinci Türkoloji Kongresi'nin Rolü”, “Türkmen Dilinde Takvimlerle İlgili Kiři Adları”, “Orhun-Yenisey Abidelerindeki Sözcükleri Katmanının Modern Özbek Edebi Dilinin Fonetik-Semantik Sistemine Yansıması”, “Türk Halkların Genel Sorunu Olarak Birinci Türkoloji Kongresi'nde Ortak Alfabe ve Dil Konuları”, Özbekistan’ın Küresel Başarılarına Sosyokültürel Bir Yaklaşım ve 2024 Yilının Analizi” gibi dil, kültür, tarih ve terminolojiye iliřkin pek çok konu yer almaktadır. Kardeř ülkelerdeki bilim adamlarının Türkoloji arařtırmaları konusundaki makaleleri ve bilimsel faaliyetleri halklarımız arasındaki baęları güçlendiren bir köprü görevi görmektedir. Türk dünyasında yapılan arařtırma sonuçlarının alan uzmanlarına, doktora ve yüksek lisans öęrencilerine, genç arařtırmacılara faydalı olmasını diliyoruz...

YAYIN KURULU

УВАЖАЕМЫЙ ЧИТАТЕЛЬ!

Редакция журнала «Туркологические исследования», радуя своих читателей первым номером в 2025 году, желает, чтобы Восточный Новый год был полон мира, процветания и успехов для тюркского мира и всего человечества. В данный выпуск журнала включен ряд статей на темы, связанные с языком, культурой, историей и терминологией, в частности, «Значение отношений Узбекистана и Азербайджана в единстве тюркского мира», «Роль Первого туркологического съезда в развитии тюркских языков и азербайджанской терминологии», «Личные имена в туркменском языке, связанные с календарём», «Отражение лексического пласта Урхун-Енисейских памятников в современной фонетико-семантической системе узбекского литературного языка», «Общий алфавит и языковые темы на Первом туркологическом съезде как общая проблема тюркских народов». Научные статьи по туркологическим исследованиям и деятельность ученых из братских стран служат мостом, укрепляющим связи между нашими народами. Мы надеемся, что результаты исследований в тюркском мире будут полезны специалистам, докторантам и магистрантам, молодым исследователям...

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИИ

SAMARQANDNING TARIXIY NOMLARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Nilufar NORPO·LOTOVA,

Samarqand davlat chet tillar instituti
tayanch doktoranti (Samarqand, O‘zbekiston),

E-mail: mirjahon776@gmail.com

ORCID: [0009-0002-1601-8216](https://orcid.org/0009-0002-1601-8216)

DOI: <https://doi.org/10.59251/3060-5318.2025.v1.138.1.3358>

Annotatsiya: Ushbu maqolada toponimiya, toponimlar, Samarqand, Registon, Afrosiyob nomlarining kelib chiqish tarixi, xususan, atalishi sabablari haqida ilmiy manbalarga tayanilgan holda atroflicha fikr yuritilgan. Samarqand, Registon, Afrosiyob toponimlarining ma’nosi va qanday vujudga kelgani xorijiy va o‘zbekistonlik tadqiqotchilarning fikrlariga asoslanib adabiyotlar asosida izohlangan. Ko‘p izlanishlarning davom etayotganligi shahrimizga bo‘lgan e’tiborning naqadar kuchli ekanligidan dalolat berishi, bu joy hech bir tadqiqotchining e’tibor markazidan chetda qolmaganligi qayd etilgan. Samarqand doimo diqqat markazida bo‘lib kelganligi va shu yerda yashovchi aholi bu yerda istiqomat qilganlaridan faxrlanganliklari aytilgan. Ba’zi joy nomlarining ma’nolari haqida manbalarda har xillik kuzatilishi haqida ham to‘xtalgan. Samarqand juda qadimiy tarixga ega bo‘lib, u toponimlarga boyligi, ayniqsa, mana shu hududning Samarqand, Ishtixon, Kattaqo‘rg‘on, Bulung‘ur, Narpay, Paxtachi, Toyloq, Urgut tumanlarida juda katta tarixga ega joy nomlari ko‘pligi haqida ham fikr yuritilgan. Samarqanddagi Registon ansambli yirik arxitektura inshooti sifatida butun dunyoda mashhurligi, Registon sahro, cho‘l, biyobon, qumloq joy ma’nolarini anglatishi va Qarshi atrofida ham shu nom bilan ataladigan maydon borligi, Afrosiyob nomi XVII asrdan boshlab yozma manbalarda uchray boshlashi, bunga qadar bu joy “Hisori Ko‘hna”, “Qal’ai ko‘hna” nomlari bilan tilga olinganligi haqidagi ma’lumotlar ham keltirilgan. Ushbu maqoladan Samarqand, Registon, Afrosiyob nomlarining kelib chiqish sabablariga qiziquvchi barcha kitobxonlar o‘zlarini o‘ylantirgan savollarga javob topishlari mumkin.

Kalit so‘zlar: *toponimika, toponimlar, Samarqand, Registon, Afrosiyob, “Samarriya”, Maroqand, Maroqanda, Samariana, Saramanka, Sakanna, Sammangen, Samakiyan, Semizkent, Mahmud Koshg‘ariy, Beruniy, “Boburnoma”, sahro, cho‘l, biyobon, qumloq joy.*

НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ ОБ ИСТОРИЧЕСКИХ НАЗВАНИЯХ САМАРКАНДА

Аннотация: В статье на основе научных источников подробно рассматривается топонимика, топонимы, история происхождения названий Самарканд, Регистан и Афросиаб, в частности причины их наименования. Значение топонимов Самарканд, Регистан, Афросиаб и причины их возникновения истолкованы на основе литератур, мнений зарубежных и узбекских исследователей. Отмечено, что множество проводимых исследований, свидетельствует о том, насколько велик интерес к нашему городу, и что он не остался вне поля исследований. Утверждается, что Самарканд всегда был в центре внимания, а его жители гордятся тем, что живут здесь. Также отмечается, что существуют различные источники относительно значений некоторых географических названий. Самарканд имеет очень древнюю историю и богат топонимами, особенно в Самаркандском, Иштиханском, Каттакурганском, Булунгурском, Нарпайском, Пахтачинском, Тойлакском и Urgутском районах этого региона, где имеется много топонимов с очень древней

историей. Также приведены сведения о всемирно известном ансамбле Регистан в Самарканде как о крупном архитектурном сооружении, название которого означает пустыня, пустынный, дикий, песчаный участок, а в окрестностях Карши есть местность с таким же названием, название Афросиаб встречается в письменных источниках с XVII века, а до этого это место упоминалось под названиями «Хисори кухна» и «Калаи кухна». В этой статье все читатели, интересующиеся происхождением названий Самарканд, Регистан и Афросиаб, смогут найти ответы на свои вопросы.

Ключевые слова: *топонимия, топонимы, Самарканд, Регистан, Афросиаб, «Самария», Мароканд, Мароканда, Самариана, Сараманка, Саканна, Самманген, Самакиян, Семизкент, Махмуд Кашигари, Беруни, «Бабур-наме», пустыня, степь, глушь, песчаное место.*

SOME THOUGHTS ON THE HISTORICAL NAMES OF SAMARKAND

Abstract: This article provides a comprehensive discussion of toponymy, toponyms, the history of the origin of the names Samarkand, Registan, Afrosiab, in particular, the reasons for their naming, based on scientific sources. The meaning of the toponyms Samarkand, Registan, Afrosiab and how they arose are explained based on the opinions of foreign and Uzbek researchers based on literature. It is noted that the fact that many studies are ongoing indicates how strong the attention to our city is, and that this place has not been left out of the spotlight of any researcher. It is said that Samarkand has always been in the spotlight and that the residents living here are proud of living here. It is also noted that there is a variety of sources about the meanings of some place names. Samarkand has a very ancient history and is rich in toponyms, especially in the Samarkand, Ishtikhan, Kattakurgan, Bulungur, Narpay, Pakhtachi, Toylok, Urgut districts of this region. The Registan ensemble in Samarkand is famous all over the world as a large architectural structure, Registan means desert, desert, wilderness, sandy place, and there is an area with the same name around Karshi, and the name Afrosiyob began to appear in written sources from the 17th century, and before that this place was mentioned under the names "Hisori Kuhna", "Qal'ai Kuhna". From this article, all readers interested in the origin of the names Samarkand, Registan, Afrosiyob can find answers to their questions.

Key words: *toponymy, toponyms, Samarkand, Registan, Afrosiab, "Samaritan", Marokand, Marokanda, Samariana, Saramanka, Sakanna, Sammangen, Samakiyan, Semizkent, Mahmud Kashgari, Beruni, "Boburnoma", desert, steppe, wilderness, sandy place.*

Kirish. “Moziyg‘a qaytib ish ko‘rish xayrlik”, – deb yozgan edi buyuk adib Abdulla Qodiriy. Darhaqiqat, tarixni o‘rganish o‘zlikni bilish demakdir. Shu sababli ham har bir shaxs o‘z yurti tarixiga, shu bilan birga, tug‘ilgan joyi nomining kelib chiqishiga befarq bo‘lmasligi kerak. Negaki, tarix tom ma‘noda kelajak hamdir. “Tarixsiz kelajak bo‘lmaydi”, – deb bejiz aytishmaydi. Shu o‘rinda ona shahrimiz Samarqand toponimining ma‘nosi va qanday vujudga kelgani, nomlanish sabablariga to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Samarqandni “sayqali ro‘yi zamin” deyishadi. Nene buyuk zotlar, yetuk shaxslar, allomalar, mashhur so‘fiylar, sarkardalar va tarixiy shaxslar yashab o‘tganligi bilan ham shuhrat qozongan zamin bu. Dastlab bu joy haqida yurtimiz [1:3-5] va ko‘pgina mashhur xorijiy [2:117-118-b] olimlar tadqiqotlar olib borishgan va bu jarayon hozirgacha davom etmoqda. Ilmiy izlanishlarning davom etayotganligi shahrimizga bo‘lgan e‘tiborning naqadar kuchli ekanligidan dalolat beradi. Buning asosiy sababi shundaki, bu joy hech bir tadqiqotchining e‘tibor markazidan chetda qolmagan.

Avvalo, bu shaharning nima sababdan Samarqand deb atalishi to‘g‘risida to‘xtalmoqchimiz. Bu shaharning “Samarqand” deb atalishining bir qancha sabablari borligi haqida “Samariya” [3:16-17-b] asarida ta’kidlab o‘tilgan. Birinchi sababi shuki, Samar ismli shaxs bu yerga kelib o‘rnashgan va o‘z atrofida aholi to‘plagan. Shuning uchun bu o‘lka dastlab “Samarkent” deb atalgan. Arablar bosqinidan keyin, ya’ni bu joyni bosib olganlaridan keyin o‘zlarining shevalariga moslab “Samarqand”, deb atashgan.

Ikkinchi sababi shuki, Samar boqir ismli xon Farg‘ona va Qoshg‘ar tomonlaridan kelib, bu shahar aholisiga dushmanlik qilib, ularni har tomonlama siquvga olishga uringanlar va shahar devorlarini qazib buzgan edilar. Shuning uchun shahar nomining “Samar qazdi”, degan ma’nosi ham mavjud bo‘lgan. Keyinchalik bu so‘z forscha “Samarqand” deb ataladigan bo‘lgan.

Uchinchi sababi esa Samar ismli xon bu shaharni barpo qilgan. Shundan so‘ng “qand” degan xalq bu yerda o‘rnashib olgan. Mana shu xalq kelib o‘rnashgandan keyin bu shaharni “Samarqand” deb atashgan. To‘rtinchisi shundayki, ushbu shaharning bir joyida Samar ismli shaxs tomonidan qazilgan bir buloq bor edi. Mana shu yerda yashovchi aholi shu yerga kelib, ya’ni buloq atrofida o‘rnashib olishadi. Shu sababli ham bu joyni “Samarqand”, deb atashgan.

Ushbu ma’lumotlar qisman bo‘lsa ham Samarqand toponimining qay tarzda vujudga kelganining dastlabki ma’lumotlari desa ham bo‘ladi. Samarqand toponimining keyingi ma’nolariga to‘xtalishdan oldin, shu o‘rinda Samarqand [4:5-6-153-b] viloyati juda qadimiy tarixga ega bo‘lib, u toponimlarga boy, ayniqsa, mana shu hududning Samarqand, Ishtixon, Kattaqo‘rg‘on, Bulung‘ur, Narpay, Paxtachi, Toyloq, Urgut tumanlari juda katta tarixga ega joy nomlari ko‘p. Bu ko‘hna diyor, allomalar yurti bo‘lgan Samarqand qadimda turli davrlarda turli xil nomlar bilan atalgan. Masalan, Samarqand ilgari Kan shahri, eramizgacha VIII-VI asrlarda Afrosiyob, eramizdan avvalgi V asrdan eramizning V asrigacha Maroqand, Maroqanda, eramizning II asrigacha Afrosiyob, eramizning XIII asrigacha esa Samariana, Saramanka, Sakanna, Sammangen, Samakiyan, Semizkent deb atalgan. Samarqand nomi esa XIV asrdan so‘ng mashhur bo‘lgan. Bundan tashqari, Samarqandning qadimda Simroyat, Sumron deb atalishi ham mavjud. Samarqand shahri viloyat markazi hisoblanadi. Bu toponimning ikkinchi qismi, ya’ni “qand” so‘zi “qishloq”, “shahar” demakdir. Ammo uning ikkinchi qismi turlicha izohlanadi. Samar - kishi nomi, meva, hosil, shirinlik va yana katta yig‘in, to‘planish, maslahat joyi, ariq, kanal degan ma’nolarni bildiradi. Shundan ma’lum bo‘ladiki, suv bilan yaqin nomi haqiqatga to‘g‘ri keladi. Demak, mana shu xulosalar shuni ko‘rsatib turibdiki, Samarqand so‘zi ariq yonidagi qishloq, shahar nomi kabi ma’nolarni ham anglatar ekan. Shahar haqida ma’lumotlar juda ko‘pligining sababi shundaki, qadimiy tarixga egaligi hamda boy madaniy merosi borligidir. Shu sababli ham hozirgacha mana shu shahar nomlanishiga juda ko‘p olimlar qiziqish bildirib kelmoqdalar.

Mashhur tilshunos V.A.Livshis[5: 7-20] Sug‘d so‘zining fonetik variantlari Sug‘ud va Sug‘d ekanligi haqida to‘xtaladi va Zarafshon vodiysining hozirgi toponimiyasida o‘lkaning qaqimiy talaffuzi kamdan kam nomlarda, ya’ni Sug‘du va Sug‘ot nomlari saqlanib qolgan deydi. Arablar davrida esa Sug‘dga Zarafshonning yuqorisidan quyi oqimiga qadar bo‘lgan hududlar kiradi. O‘rta asrlarda Buxoro sug‘di va Samarqand Sug‘di bir-biridan farq qilgan. Yozma manbalarda Sug‘d ko‘plab katta-kichik qishloqlari va shaharlari bo‘lgan mamlakat sifatida ta’riflanadi. Sug‘dning markaziy shahri esa Samarqand bo‘lgan. Shahrimiz o‘sha davrda ham aholisi ko‘pligi, hunarmandchilik, savdo va sanoat sohasida boshqa viloyatlarga o‘rnak bo‘lgan. Bundan tashqari, qadimiy madaniyat, xalqaro savdo-sotiq, siyosiy diplomatik mavqe Samarqand shahri va viloyatining jahon sivilizatsiyasida tutgan o‘mini belgilab bergan. Shu o‘rinda ta’kidlash

joizki, Samarqand respublikamizning eng ko‘hna shahri va viloyati sifatida mashhurdir. Shahar asrlar davomida olimlar, fozillar, shoirlar maskani bo‘lgan. X asrda yashab o‘tgan al-Xorazmiy “Samarqand Sug‘di yer yuzining jannatlardan biri” deb ta‘riflagan. Ingliz sayohatchisi Aleksandr Borns esa iqlimining ajoyibligi va suvining shirinligi tufayli “...bu qadimiy vodiy Aleksandr Makedonskiy davridan beri maqtovgaga sazovor bo‘lib kelmoqda”, - deb aytib o‘tgan.

Ilk madaniyat markazlaridan biri bo‘lgan Samarqand shahri va viloyatida juda ko‘p qadimiy nomlar dunyoga kelgan, yaratilgan va saqlanib qolgan. Samarqand toponimiyasini o‘rganishda moddiy va ma‘naviy manbalarning o‘rni beqiyos. Mana shu aniq ma‘lumotlarga asoslangan manbalar asosida ushbu joy to‘g‘risida ma‘lum bir fikrga kelish mumkin. Bu tushunchalar o‘zlarida xalq hayoti, diniy afsonalar, qadimgi hayot haqidagi xotiralarni, etnik tushunchalar haqidagi ma‘lumotlarni saqlab qoladi. Qadimgi sug‘d, ya‘ni Samarqand haqidagi ma‘lumotlardan biri bu “Avesto” bo‘lib, uning “Videvdat” qismida shunday deyiladi: “Men Axuramazda, birinchi marta eng yaxshi joy va mamlakatlarni Ariana-Vejani yaratdim, ikkinchi bo‘lib sug‘dlar yashaydigan joy – Gavani yaratdim”. Bu manba sug‘dlar haqidagi ilk ma‘lumot bo‘lib, bundan keyingi manbalarda bu joy nomi tez-tez uchrab turadi. Shuningdek, Samarqand hududi bilan bog‘liq toponimlar Behistun, Persepol bitiklarida, Hamadonda bitilgan kumush taxtachada, Sug‘d yodgorligida, Shopur I bitiklarida, antik davr mualliflaridan biri Kvint Kursiy Ruf, Pompey Trog, Spilinskiy asarlarida uchraydi.” Sin Tan Shu” nomli yilnomada ham Samarqandning nomlanishi bilan bog‘liq ma‘lumotlarni uchratishimiz mumkin.

Samarqand nomi “Vey shu” va “Bey shu” yilnomalarida dastlab “Sivanzin” deb qayd qilingan. Samarqand joylashgan hudud Kanzuy keyinchalik Kongo deb atalgan. Ierogliflarda shahar nomi Syunsigan, Samaergan, Semisigan, Samaerxan, Saymarkan va boshqa shakllarda berilgan. Shu o‘rinda Saymarkan musulmoncha so‘z, “obod” ma‘nosida qayd etilgan.

Samarqand doimo diqqat markazida bo‘lib kelgan va shu yerda yashovchi aholi bu yerda istiqomat qilganlaridan faxrlanganlar. Mashhur olim Abu Sad Abdalkarim ibn Muhammad as-Somoniyni Samarqandda yoza boshlagan “Kitob al-asnob” asari XII asr shahar topografiyasi haqida muhim ma‘lumotlarga ega asarlardan biridir. As-Somoniy ushbu shaharni yaxshi bilgan, bundan tashqari, al-Idrisiyni “Samarqand tarixi”, Abu Hafs an-Nasafiyni “Kitob al qand fi ma‘rifat ulamo Samarqand” kitoblaridan ham unumli foydalangan. Akademik V. V. Bartold as-Somoniy va Yoqut Hamaviy asarlaridagi toponimlarni qiyoslash orqali o‘sha davrdagi Samarqandning tarixiy manzarasini tiklashga harakat qiladi.

Mashhur olim Rempel ushbu joyni “Afsonalar shahri” deb aytgani bejiz emas. Samarqand shahri uzoq o‘tmish bilan bog‘lanadi. Mug‘ tog‘i va Samarqand hukmdorlari saroyidagi yozma bitiklarda ushbu toponim Smarakansa shaklida uchraydi. Grekcha “Maroqand” va sug‘dcha “Smarakansa” toponimlari orasidagi fonetik farq unchalik katta emas.

Yana bir qiziq ma‘lumot borki, Qozog‘iston Respublikasining Qarag‘anda viloyatidagi Temirtov shahri XX asrning 40-yillariga qadar Samarqand nomi bilan yuritilgan.

Yuqorida biz Samarqand so‘zining ikkinchi qismi hisoblanadigan kent so‘zining bir qancha ma‘nolarini aytib o‘tgan edik. Bu nom [6: 217-218] qishloq, shahar ma‘nosidan tashqari qasr, qo‘rg‘on degan ma‘nolarni ham bildirar ekan. XI asrning buyuk tilshunosi, qomusiy olim Mahmud Koshg‘ariy Semizkent, ya‘ni katta shahar deb izohlagan. Buyuk alloma bobomiz Abu Rayhon Beruniy Semizkand, ya‘ni ma‘rifat shahri deb aytgan. T.Ernazarov esa daryo bo‘yidagi shahar deb atagan. Ushbu toponimning birinchi qismi hisoblangan Samar so‘zining esa qat‘iy ma‘nosi aniqlanmagan. Shu o‘rinda ushbu joyni tahlil qilar ekanmiz, bu shaxs haqida to‘xtalmay ilojimiz yo‘q. Samarqand nomining qo‘yilishida 2750 yillik tarixga ega bo‘lganligi ham alohida

